



## 2019 yil yanvar-fevral oyida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2 527,9** mlrd.so`mni, sanoat ishlab chiqarish indeksi **103,5%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`shish sur`ati – **7,8 %**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **26,7%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **29,2%**
- Faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalarini soni-**6696** birlikni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'ycha 2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2527,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 110,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat – 103,9%, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash - 100,8 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 69,4 % ga o'sishi hisoblanadi.

## 2019 yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.



### Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.



Tog'-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan – 10,5 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.



### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2019 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2405,0 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,1 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog`ining hajmi -1,0 mlrd.so`mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,04%), o`rta yuqori texnologiyali – 374,5 mlrd.so`mni, (15,6%), o`rta quyi texnologiyali – 844,2 mlrd.so`mni, (35,1%) va quyi texnologiyali – 1185,3 mlrd.so`mni, (49,3%) tashkil etdi.

### **Yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



**Yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi- 1,0 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,04%**



**O`rta yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 374,5 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-15,6%**



**O`rta quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 844,2 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-35,1%**





**Quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 1185,3 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-49,3%**











O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 12,1 % ga, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 7,0 % ga, terini qayta ishlash 4,4 % ga, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish 63,1 % ga, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 20,1 % ga, mebel ishlab chiqarish 8,5 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 35,3 % ga, rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish 7,5 % ga oshganligini va koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlari ishlab chiqarish, mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| 2018 yilda ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari   | 2019 yilda ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, foizda |
|-------------------------------|---|-------------------------------|------------------------|
| 24,3                          | <p><b>Yumshoq bug'doy va spel'ta uni, ming t.</b></p>  | 26,7                          | 109,7                  |
| 17,8                          | <p><b>Paxta tolasi, ming t.</b></p>                    | 18,7                          | 105,2                  |

| 2018 yilda ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari   | 2019 yilda ishlab chiqarilgan | O`shish sur`ati, foizda |
|-------------------------------|---|-------------------------------|-------------------------|
|                               | <b>Narsa joylanadigan qoplar va paketlar, t.</b>                                    |                               |                         |
| 134,8                         |    | 180,2                         | 133,6                   |
|                               | <b>Neft bitumi, ming t.</b>   |                               |                         |
| 5,4                           |    | 8,0                           | 148,1                   |
|                               | <b>Amoniy nitrat, ming t. azot</b>  |                               |                         |
| 17,6                          |  | 30,7                          | 175,0                   |
|                               | <b>Superfosfat ming t. P2O5</b>   |                               |                         |
| 1,6                           |  | 4,1                           | 2,6 martta              |
|                               | <b>Portlandsement, ming t.</b>  |                               |                         |
| 80,5                          |  | 121,6                         | 151,1                   |
|                               | <b>Shisha idishlar, mln dona.</b>   |                               |                         |
| 20,3                          |  | 23,9                          | 117,9                   |

### **Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 105,9 mlrd. so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,2 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog`i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,8 % ni tashkil etdi.



### **Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,2 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog`i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,4 % ni tashkil etdi.



## 2019 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab- quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 674,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 7,8 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 26,7 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




### **Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg'ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 39,0 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 15,4% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,9% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,4% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 11,6% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,0% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,5% ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,0% ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,9% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2% ulushini), Bog`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2% ulushini), Oltiariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,7% ulushini), Farg`ona tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,1% ulushini), Uchko`prik tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,1% ulushini), Qo`shtepa tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,8% ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), So`x tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,4% ulushini), Furqat tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,4% ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.



## 2019 yil yanvar-fevral oyida hududlar bo`yicha sanoat ishlab chiqarilishining ulushi, foizda




### 2019 yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishining hajmlari va viloyatdagi ulushi, %



### Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi.

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 117,1 mlrd.so`m, Qo`qon shahar 142,0 mlrd.so`m, Quvasoy shahar 35,6 mlrd.so`m, Marg`ilon shahar 53,3 mlrd.so`m, Toshloq tumani 36,1 mlrd.so`m, Dang`ara tumani 21,8 mlrd.so`m, O`zbekiston tumani 28,1 mlrd.so`m, Quva tumani 25,4 mlrd.so`m, Buvayda tumani 15,6 mlrd.so`m, Beshariq tumani 30,7 mlrd.so`m, Bog`dod tumani 28,6 mlrd.so`m, Oltiariq tumanlari 25,4 mlrd.so`m, Farg`ona tumani 20,1 mlrd.so`m, Rishton tumani 28,0 mlrd.so`m, Yozyovon tumani 12,8 mlrd.so`m, Qo`shtepa tumani 16,1 mlrd.so`m, So`x tumani 6,4 mlrd.so`m, Uchko`prik tumani 23,8 mlrd.so`m, Furqat tumani 7,4 mlrd.so`mga, to`g`ri keldi.



**Farg`ona viloyatining 2019 yil yanvar-fevral oylarida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**


| №                       | Shaharlar va tumanlar nomi | 2019 yil yanvar-fevral sanoat ishlab chiqarilishi |              | 2019 yil yanvar-fevral aholi jon boshiga | 2019 yil yanvar-fevral xalq iste`mol tovarlari |              | 2019 yil yanvar-fevral aholi jon boshiga |
|-------------------------|----------------------------|---|--------------|--|--|--------------|--|
|                         |                            | mlrd.so`m   | ulushi, %    | ming.so`m                                | mlrd.so`m                                      | ulushi, %    | ming.so`m                                |
| 1                       | Oltiariq t.                | 42,5  | 1,7          | 207,6                                    | 25,4   | 3,8          | 124,1                                    |
| 2                       | Qo`shtepa t.               | 20,1  | 0,8          | 109,4                                    | 16,1   | 2,4          | 87,4                                     |
| 3                       | Bog`dod t.                 | 56,2  | 2,2          | 270,3                                    | 28,6   | 4,2          | 137,6                                    |
| 4                       | Buvayda t.                 | 48,0  | 1,9          | 218,0                                    | 15,6   | 2,3          | 70,8                                     |
| 5                       | Beshariq t.                | 56,3  | 2,2          | 254,5                                    | 30,7   | 4,6          | 138,8                                    |
| 6                       | Quva t.                    | 75,8  | 3,0          | 302,6                                    | 25,4   | 3,8          | 101,5                                    |
| 7                       | Uchko`prik t.              | 28,5  | 1,1          | 128,9                                    | 23,8   | 3,5          | 107,5                                    |
| 8                       | Rishton t.                 | 53,1  | 2,1          | 271,2                                    | 28,0   | 4,2          | 143,1                                    |
| 9                       | So`x t.                    | 9,9   | 0,4          | 131,5                                    | 6,4  | 0,9          | 84,5                                     |
| 10                      | Toshloq t.                 | 292,5   | 11,6         | 1497,9                                   | 36,1   | 5,3          | 184,6                                    |
| 11                      | O`zbekiston t.             | 62,2  | 2,5          | 269,0                                    | 28,1   | 4,2          | 121,7                                    |
| 12                      | Farg`ona t.                | 29,7  | 1,2          | 144,1                                    | 20,1   | 3,0          | 97,3                                     |
| 13                      | Dang`ara t.                | 102,0   | 4,0          | 607,6                                    | 21,8   | 3,2          | 130,1                                    |
| 14                      | Furqat t.                  | 10,2  | 0,4          | 89,2                                     | 7,4  | 1,1          | 64,5                                     |
| 15                      | Yozyovon t.                | 29,8  | 1,2          | 278,7                                    | 12,8   | 1,9          | 119,5                                    |
| 16                      | Farg`ona sh.               | 986,4   | 39,0         | 3509,1                                   | 117,1  | 17,3         | 416,4                                    |
| 17                      | Qo`qon sh.                 | 389,2   | 15,4         | 1575,0                                   | 142,0  | 21,1         | 574,6                                    |
| 18                      | Quvasoy sh.                | 148,9   | 5,9          | 1637,8                                   | 35,6   | 5,3          | 391,8                                    |
| 19                      | Marg`ilon sh.              | 86,5  | 3,4          | 376,8                                    | 53,3   | 7,9          | 232,0                                    |
| <b>Viloyat bo`yicha</b> |                            | <b>2 527,9</b>                                    | <b>100,0</b> | <b>692,3</b>                             | <b>674,2</b>                                   | <b>100,0</b> | <b>184,6</b>                             |



## **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hisyasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 18,8 % tashkil etmoqda.

**2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo`yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 6696 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1240 tasi Qo`qon shahri, 867 tasi Marg`ilon shahri, 842 tasi Farg`ona shahri, 495 tasi Uchko`prik tumani, 411 tasi O`zbekiston tumani, 348 tasi Dang`ara tumani, 333 tasi Buvayda tumani, 256 tasi Toshloq tumani, 261 tasi Quva tumani, 220 tasi Bog`dod tumani, 227 tasi Oltiariq tumani, 187 tasi Qo`shtepa tumani, 193 tasi Rishton tumani, 169 tasi Farg`ona tumani, 165 tasi Quvasoy shahri,

124 tasi Yozyovon tumani, 126 tasi Furqat tumani, 118 tasi Beshariq tumani, 114 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 472 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo`lib, ulardan 48 tasi Qo`qon shahri, 47 tasi Marg`ilon shahri, 48 tasi Farg`ona shahri, 47 tasi Uchko`prik tumani, 23 tasi O`zbekiston tumani, 21 tasi Dang`ara tumani, 37 tasi Buvayda tumani, 19 tasi Toshloq tumani, 38 tasi Quva tumani, 22 tasi Bog`dod tumani, 22 tasi Oltiariq tumani, 12 tasi Qo`shtepa tumani, 27 tasi Rishton tumani, 16 tasi Farg`ona tumani, 17 tasi Quvasoy shahri, 6 tasi Yozyovon tumani, 5 tasi Furqat tumani, 8 tasi Beshariq tumani, 9 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.



*Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-fevral oylari davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlikda*



**Farg'ona viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

F.Yakubov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-87-19